



Maxmudova Malika Anvarovna,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi tayanch doktoranti

e-mail: malika.mahmudova.2016@mail.ru

JAMIYATDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBANING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada hozirgi kunda O'zbekistonda siyosiy va ijtimoiy qarorlarni qabul qilishda ayollar ishtiroki bilan bog'liq vaziyatlar hamda dunyoda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda qo'llanayotgan ilg'or xorijiy tajribalar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: gender, ayollarning siyosiy ishtiroki, modernizatsiya, davlat hokimiyati, xorijiy tajriba.

Аннотация. В статье анализируются ситуации, связанные с участием женщин в принятии политических и социальных решений в Узбекистане, а также передовой зарубежный опыт, используемый для повышения общественно-политической активности женщин в мире.

Ключевые слова: гендер, женское политическое участие, модернизация, государственная власть, международный опыт.

Annotation. The article analyzes situations related to the participation of women in political and social decision-making in Uzbekistan, as well as advanced foreign experience used to increase the socio-political activity of women in the world.

Keywords: gender, women's political empowerment, modernization, state power, international experience.

Kirish. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) insoniyatni himoya qilish va farovonligini oshirishga qaratilgan bo'lib, O'zbekiston ham unga erishishning qat'iy tarafdoridir. BMTning 2030-yilgacha bo'lgan Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi 2021-yilning may oyida davlat idoralari, NNT, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga oid sakkizta vazifani ishlab chiqdi va "Gender tenglikka erishish strategiyasi"ni qabul qildi. Unga ko'ra, 2030-yilga kelib, xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har

qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini hamda yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash nazarda tutilgan. Bundan tashqari, ushbu maqsad hukumatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o'z ichiga oladi.

Albatta, bu maqsadlarga erishishda ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir.

Gender tengligi bo'yicha 2022-yilgi mamlakatlar reytingida¹ Germaniya davlati top

¹ https://www3.weforum.org/docs/WEF_GGGR_2022.pdf

o'ntalikka kirgan bo'lib, hozirda ham ayollarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yetakchilikni saqlab qolmoqda. Xelen Veber kolleji Germaniyada xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan qator dasturlarni taklif etadi. Xususan, Xelen Veber kollejida maxsus dastur asosida siyosatda o'zini sinab ko'rmoqchi bo'lgan ayollar va qizlar uchun qator o'quv kurslar tashkillashtirilgan. Dastur qator programmalarni – maxsus 9 oylik o'quv kurslari, yozgi va qishki maktablar (har safar turli mavzularda tashkil etiladi) hamda amaliyotni o'z ichiga oladi. Barcha dasturlar malakali murabbiylar tomonidan olib boriladi. Shu bilan bir qatorda, dastur doirasida doimiy ravishda ko'chma ko'rgazma tashkil etiladi. Barcha yangiliklar va ma'lumotlar Xelen Veber informatsion veb-saytida² muntazam ravishda yoritib boriladi. Shuningdek, Oila, qariyalar, ayollar va yoshlar masalalari federal vazirligi³ (BMFSFJ) tomonidan Xelen Veber mukofoti ta'sis etilgan bo'lib, unda har yili 15 nafar mahalliy siyosatchi ayol taqdirlanadi va 10 000 yevro miqdoridagi pul mablag'i bilan rag'batlantiriladi. Mukofotning maqsadi ayollarning mahalliy siyosatdagi ishtirokini e'tirof etgan holda, ularning yutuqlarini keng jamoatchilikka namoyon etishdan iborat.

Nomzod va saylangan ayollarni o'qitish, o'rgatish va salohiyatini oshirish. Siyosiy partiyalar va saylovchilar ko'pincha ayollarda (go'yoki) siyosiy tajriba yetishmasligini ta'kidlaydilar va bu, o'z navbatida, ularni qo'llab-quvvatlamaslikka sabab bo'ladi. Ayol nomzodlar va kelajakda saylanish niyatida bo'lgan oddiy ayollarni (jumladan, yosh ayollar, imkoniyati cheklangan ayollar va h.k.) o'qitish, ularga murabbiylik qilish va salohiyatini oshirish dasturlari (o'quv kurslar) tajriba orttirish, shuningdek, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash kabi ko'nikmalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Saylovdan so'ng Parlament yoki qarorlarni qabul qiluvchi boshqa yuqori organlarning qoidalari va tartib-taomillarini o'rgatish bo'yicha treninglar ham ayol deputatlarni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Bunday mashg'ulotlarning doimiy ravishda davom etishi muhimdir.

² <https://www.frauen-macht-politik.de/en/helene-weber-college/the-helene-weber-college/>

³ <https://www.bmfsfj.de/bmfsfj/meta/en/the-ministry>

Portugaliyada “Ayollardan ayollarga” dasturi⁴ amaliyotga joriy etilgan bo'lib, unga ko'ra, yosh ayollarning siyosatdagi ishtirokini oshirish maqsadida siyosiy tajribaga ega ayollar 16 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 30 nafar xotin-qizga o'n ikki oy davomida murabbiylik qiladilar. Bundan tashqari, ular gender tengligi, demokratiya hamda siyosiy tizimlar bo'yicha o'quv kurslari tashkil etadilar va ushbu dastur doirasida siyosiy tashkilotlarga tashriflar uyushtiriladilar.

Rossiya Federatsiyasi. Tug'uruq ta'tilidagi ayollar va voyaga yetmagan bolalarning onalari uchun maxsus “Tadbirkorona” federal ta'lim dasturi⁵ yaratilgan bo'lib, beg'araz o'tiladi. Mazkur Dastur doirasida tajribali murabbiylar tarkibi, ya'ni ustozlar va kuratorlar ishtirokchilarning o'z shaxsiy biznesini ochishiga hamda g'oyalarini hayotga tatbiq etishiga ko'maklashadi. Biznes reja tanlovi natijalariga ko'ra, g'olib naqd pul shaklida rag'batlantiriladi.

Xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish maqsadida davlat tomonidan maxsus moliyalashtirish mexanizmlari. Italiyada siyosiy partiyalarga ajratilgan davlat mablag'larining 5 foizi ayollar faolligini targ'ib qiluvchi tadbirlarga va ularning siyosiy faoliyatiga ajratilishi belgilab qo'yilgan. 2009-yildan buyon Irlandiyadagi siyosiy partiyalar olingan davlat mablag'larini ma'lum maqsadlarga, shu jumladan, ayollar va yoshlarning siyosiy tadbirlarda ishtirok etishiga ko'maklashishga qaratish tartibi joriy etilgan⁶.

Rasmiy gender tengligi siyosatini qabul qilish va partiyaning me'yoriy-huquqiy bazasida gender tengligi masalasini ko'tarish – potensial ayol nomzodlar (va saylovchilar) uchun partiyaning siyosiy va ijtimoiy hayot bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda ayollarning teng ishtirokini qo'llab-quvvatlash g'oyalariga sodiqligini ifodalovchi kuchli

⁴ <https://eige.europa.eu/gender-mainstreaming/good-practices/portugal/bringing-young-women-politics-project-womanwoman>

⁵ <https://eawf.ru/projects/globalnye-initsiativy-v-interesakh-zhenshchin/obrazovatelnyy-proekt-mama-predprinimatel/>

⁶ Баллингтон Джули, Мюриэль Кахане. «Глава 9. Женщины в политике: финансирование для гендерного равенства». Финансирование политических партий и избирательных кампаний: справочник по вопросам политического финансирования, 300–343. Стокгольм: Международный институт демократии и содействия выборам, 2014 г. <https://www.idea.int/sites/default/files/publications/funding-of-political-partiesand-election-campaigns.pdf>.

ijobiy jamoatchilik belgisi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tenglik siyosati ayollarning ishtirokini oshirish bo'yicha maxsus chora-tadbirlarni (xususan, kvotalar yoki faqat ayollar uchun salohiyatni oshirish va murabbiylik dasturlari), shuningdek, mehnat va oila muvozanati, kamsitish va suiiste'mol qilishga qarshi kurashish mexanizmlari kabi masalalarni o'z ichiga olishi mumkin. Tenglik siyosati hamda ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish masalalarini partiya siyosatiga kiritishni kafolatlash majburiyatini o'z ichiga olishi mumkin. Bu genderni yo'naltirilgan siyosat islohotini qo'llab-quvvatlash (masalan, genderni asoslangan zo'ravonlikka qarshi kurashish yoki bola parvarishi va reproduktiv huquqlarga nisbatan) va odil sudlov, sog'liqni saqlash, fuqarolik olish, mehnat huquqlari, yer huquqlari, ijtimoiy ta'minot va meros olish kabi sohalarida gender tenglikni rag'batlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Siyosiy partiya uchun gender tengligi siyosatini joriy etishda demokratiya va saylovlarga ko'maklashish xalqaro instituti ushbu tamoyillarni institutsionallashtirishni taklif qiladi⁷:

- rasmiy (formal) bo'lmagan, haqiqiy tenglik – ayollar va erkaklarning turli vaziyatlari va turli holatlarini hisobga oladigan choralar;

- ayol nomzodlar uchun kvotalar, o'qitish va murabbiylik kabi maxsus chora-tadbirlar; kam sonli guruhlardagi ayollarni jalb qilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar;

- barcha nomzodlar hamda vakillarga ish va oilaviy majburiyatlarni muvozanatlashtirishga imkon beradigan chora-tadbirlar, masalan, yig'ilishlarning vaqti va joylashuvi to'g'risida "gender sezuvchan qarorlarni" qabul qilish, qulay mehnat sharoitlarini yaratishga ko'maklashish;

- tenglik siyosatini yanada takomillashtirish haqida xabardor qilish uchun ma'lumotlarni yig'ish va jinsga ko'ra ajratib qo'llash.

Shimoliy Yevropa mamlakatlari (Daniya, Finlyandiya, Islandiya, Norvegiya va Shvetsiya) da ixtiyoriy partiya kvotalari joriy etilgan. Bu amaliyot ayollarning siyosatdagi ishtirokining dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlarini namoyon qila oldi. Ularning muvaffaqiyati siri – Shimoliy Yevropa mamlakatlarining hech birida qonuniy normalar o'rnatilmagan, ammo mintaqadagi

ko'plab siyosiy partiyalar 1970 yoki 1980-yillardan beri ixtiyoriy kvotalardan foydalanib kelmoqda. Masalan, Shvetsiyadagi Sotsial-demokratik partiya 1978-yildan beri ichki kvota tizimidan foydalanmoqda va hozirda partiya ro'yxatida navbatma-navbat erkak va ayol nomzodlarning "zip tizimini" qo'llamoqda. Norvegiyada ham ishchilar partiyasi 1983-yildan beri ixtiyoriy kvotalardan foydalanib kelmoqda. Uning ustavida esa 50 foizlik kvota ko'zda tutilgan bo'lib, unda ikkala jins vakili ham ro'yxatdagi dastlabki ikki o'rinda taqdim etilishi kerakligi belgilangan⁸.

Irlandiyadagi Leyboristlar partiyasining Ayollar qanoti ayol nomzodlarni noqulay ahvolga soladigan beshta omilni aniqladi: uy majburiyatlari, madaniyat, pul, ishonch va nomzodlarni tanlash. Ushbu omillar bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun partiya tomonidan dastur ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra, nomzod ayollar uchun mablag' yig'ish, shuningdek, partiya a'zolari bo'lgan ayollar uchun o'quv kurslarini (treninglar) hamda axborot berish va tushuntirish tadbirlarini tashkil etadilar⁹.

Rasmiy "ayollar qanoti"ni qo'llab-quvvatlash siyosiy partiyalar uchun ayollar ishtirokini rag'batlantirishning azaliy va juda keng tarqalgan mexanizmidir. Ayollar qanotining tashkil etilishi siyosatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq samaradorlikni oshirish uchun ayollar qanotini partiya tuzilmasiga muayyan funksiyalar va majburiyatlarni, shuningdek, munosib moliyalashtirishni ko'zda tutgan holda rasman birlashtirish lozim. Xorvatiyada 1995-yilda faol ayollar tomonidan tashkil etilgan Sotsial-demokratik partiyaning (SDP) "Demokratik ayollar forumi" ushbu partiyada ayollarning ishtirokini oshirish uchun astoydil harakat qildi. Bunday qadam fuqarolik jamiyati subyektlari bilan strategik aloqalarni o'rnatishni, partiyadagi 40% kvotani "yetarlicha taqdim etilmagan jins" uchun ajratishni kelishish bo'yicha muvaffaqiyatli harakatlarni, partiyaning ayol a'zolariga ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratishni va mahalliy darajada ayollar uchun siyosiy ustuvorliklarni aniqlash

⁸ Международный институт демократии и помощи в проведении выборов, Межпарламентский союз и Стокгольмский университет. «База данных гендерных квот». Международный институт демократии и содействия выборам. По состоянию на 24 июля 2019 года. <https://www.idea.int/data-tools/data/genderquotas>.

⁹ <https://www.idea.int/sites/default/files/publications/funding-of-political-parties-and-election-campaigns.pdf>.

⁷ Международный институт демократии и содействия выборам. «Основа для разработки гендерной политики для политических партий». Стокгольм: Международный институт демократии и содействия выборам, 2016 г.

platformalarini ishlab chiqishni nazarda tutgan. Ushbu tadbirlar SDP deputatlari orasida ayollar sonining oshishiga olib keldi va ular partiyaning o'zida qarorlarni qabul qilishda faolroq ishtirok eta boshladi¹⁰.

Ispaniya "BMT – Ayollar" tuzilmasi doirasida ayollarning davlat siyosatiga qamrab olinishi ustidan nazoratni ta'minlash, shuningdek, fuqarolik jamiyatida ayollar tashkilotlarining mavqeyini mustahkamlash maqsadida Gender tengligi fondini yaratdi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Madridda 2020-yil holatiga qadar jinslar tengligi bo'yicha 36 ta agent faoliyat yuritgan. Ushbu agentlardan biri bo'lgan Karmen Garsiyaning so'zlariga ko'ra, 2 yil davomida ular Ispaniya poytaxtidagi 65 ta ko'cha nomini taniqli ayollar sharafiga qayta nomlashga hamda bolalar aravachasi bilan yo'ldan o'tayotgan ayollar uchun yo'lehiroqlarning (svetofor) yonish davomiyligini bir necha soniyaga uzaytirishga erishgan¹¹.

Jahonda oila manfaatlarini hisobga olgan holda ayollarning siyosiy faolligini rivojlantirish amaliyoti ham mavjud bo'lib, unga ko'ra, parlament yig'ilishlarida ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'lgan tug'uruq ta'tilidagi yoki emizikli ayollarning ovoz berishda qatnashishi va ovoz berishi tizimli rag'batlantiriladi. Oilaviy majburiyatlarini siyosiy karyera bilan birga olib borishiga imkon yaratilib, ayollarning (va erkaklarning) holati yengillashtiriladi. Bundan tashqari, bu amaliyot parlamentlarning ish madaniyatini ko'proq inklyuziya va gender sezuvchanlik tomoniga o'zgartirishga xizmat qiladi. Masalan, Daniyada 19:00 dan keyin ovoz berilmaydi. Ispaniyada yalpi majlislar vaqti aniq belgilangan. Portugaliyada onalik ta'tili yoki bola parvarishi ta'tili parlament a'zosini "vaqtincha o'rnini egallash" uchun maqbul sababdir. Irlandiyada barcha parlamentariylar va parlament a'zolari "bolalar xonalari"dan foydalanish imkoniyatiga ega.

¹⁰ Баллингтон, Джули ва бошк. Расширение прав и возможностей женщин для более сильных политических партий: руководство по поощрению участия женщин в политической жизни. Нью-Йорк/Вашингтон, округ Колумбия: Программа развития ООН / Национальный демократический институт по международным вопросам, 2012.

¹¹ Женщины в Испании: история и современное положение. Мачизм и феминизм / [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://estatespain.com/blog/zhenschiny-v-ispanii>.

1974-yilda Shvetsiya hukumati otalarga bolani parvarishlash ta'tiliga chiqish uchun qonuniy ruxsat bergan birinchi mamlakat bo'ldi. Ongli otalik g'oyalarini jamiyatga singdirish va onalar yumushlarini biroz yengillashtirish maqsadida "otalik kvotalari", ya'ni aynan ota foydalanishi kerak bo'lgan bolani parvarishlash ta'tili davri joriy qilindi. Bugungi kunda majburiy "otalik dekreti" davomiyligi qonun bilan kafolatlangan bo'lib, u 60 kunni tashkil qiladi. Shuningdek, yaqinda ona yoki ota bo'lgan shaxslar 480 kunni teng taqsimlab olishlari mumkin. Unda oilaga mo'ljallangan ijtimoiy to'lovlar miqdori ko'proq bo'ladi. Ushbu rag'bat chorasi tufayli bugungi kunda shved otalarining chorak qismi onalari bilan bir qatorda tug'uruq ta'tiliga chiqmoqdalar.

1982-yildan boshlab Kanada, Estoniya va Islandiya davlatlarida oila manfaatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratuvchi parlamentlar faoliyat yuritadi. Jamoalar palatasi a'zolari, parlament xodimlari va parlament faoliyatini ta'minlaydigan ba'zi xodimlar parlamentning asosiy binosi yaqinida joylashgan bolalarni parvarish qilish muassasasidan foydalanishlari mumkin. Bolalarni kunduzi parvarish qilish uchun notijorat markazidagi 34 ta joy taklif etiladi. Riigikogu binosida (Estoniya Parlamenti) bolalar xonasi mavjud bo'lib, unda 5 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalar o'ynashi, kitob o'qishi, bilim olishi va televizor yoki DVD tomosha qilishi mumkin. Bolalarga hech kim qaramagani uchun ota-onalarning o'zlari (parlamentariylar va mansabdor shaxslar) ulardan boxabar bo'lishlari kerak. Bolalar xonasida kichik oshxona va bir nechta "ish" joylari (stol va Wi-Fi bilan) mavjud.

Islandiyada parlament kafeteriyasiga bolalar o'rindiqlari o'rnatilgan bo'lib, bolani yo'rgaklash uchun stol va oilaviy xonadan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan.

Ayollarning siyosiy faolligini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ijobiy xalqaro tajribalar asosida quyidagi taklif va tavsiyalarni berib o'tmoqchiman:

– mahalliy saylanadigan organlar milliy institutlarga qaraganda kamroq ahamiyatga ega, deb qaralmasligi lozim (Maltada ayollarning mahalliy darajada siyosiy hayotdagi ishtiroki alohida e'tiborga loyiqdir. Mahalliy hokimiyat aholiga keng ko'lamli xizmatlarni taqdim etadi hamda odamlarning kundalik hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina ayollar va erkaklar uchun mahalliy hokimiyat

organlari ularning siyosiy karyerasida va kerakli tajribaga ega bo'lgan sohada boshlang'ich nuqtadir. Agar ko'proq ayollar o'zlarini mahalliy darajadagi siyosatda sinab ko'rish imkoniga ega bo'lsalar, bu ular uchun parlamentga saylanishga turtki bo'lishi va bunday ayollar soni ko'payishi mumkin);

– oilali rahbar ayollar uchun yanada qulay mehnat sharoitlarini yaratish va ularni qo'llab-quvvatlash;

– ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida ularning ushbu sohadagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan maxsus grantlar, stajirovkalar, qisqa muddatli amaliyot o'tash tizimini tubdan takomillashtirish va bunda ustoz-shogird amaliyotidan foydalanish;

– nomzod ayollar uchun mablag' yig'ish tarmoqlarini topish va undan samarali foydalanish, nomzod ayollar uchun partiya ichida fondlar tashkil etish hamda subsidiyalar berishni yo'lga qo'yish;

– ayol nomzodlarni saylovoldi o'qitish uchun partiya hisobidan (kerak bo'lsa, hukumat tomonidan) mablag' ajratish;

– ayollar, xususan siyosatdagi ayollar imijini targ'ib qilish maqsadida OAV mutaxassislarini tayyorlash;

– boshqaruv lavozimlariga nomzod bo'lgan ayollar va erkaklarning ommaviy axborot vositalarida adolatli va teng yoritilishini ta'minlashga qaratilgan milliy mexanizmlarini yaratish;

– partiya siyosatini ishlab chiqishda gender tengligi masalasining hisobga olinishini kuzatib borish.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda ayol qadrigimmati, huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida davlat bosh islohotchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Zotan, jamiyatda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ifoda etish, davlat va jamiyat munosabatlarida ayollarning o'rni va rolini yanada oshirish, ularning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy sohalarida manfaatlarini himoya qilishda xorijiy tajribaning ahamiyati yuqori. Biroq mamlakatimizning milliy qadriyatlarini saqlab qolgan holda eng maqbulini implementatsiya qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniyatlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son [Farmoni](#).
3. <https://eige.europa.eu/gender-mainstreaming/goodpractices/portugal/bringing-young-women-politics-project-womanwoman>
4. Европейский институт гендерного равенства. «Политика женской власти — Helene Weber Kolleg (Германия)». Европейский институт гендерного равенства (блог), 2015 г. <https://eige.europa.eu/gendermainstreaming/good-practices/germany/women-power-politics-helene-weber-kolleg>.
5. Международный институт демократии и содействия выборам. «Основа для разработки гендерной политики для политических партий». — Стокгольм: Международный институт демократии и содействия выборам, 2016 г.
6. Международный институт демократии и помощи в проведении выборов, Межпарламентский союз и Стокгольмский университет. «База данных гендерных квот». Международный институт демократии и содействия выборам. По состоянию на 24 июля 2019 года // <https://www.idea.int/data-tools/data/genderquotas>
7. <https://www.idea.int/sites/default/files/publications/funding-of-political-partiesand-election-campaigns.pdf>.
8. Баллингтон Джули ва бошк. Расширение прав и возможностей женщин для более сильных политических партий: руководство по поощрению участия женщин в политической жизни. — Нью-Йорк/Вашингтон, округ Колумбия: Программа развития ООН / Национальный демократический институт по международным вопросам, 2012.
9. Женщины в Испании: история и современное положение. Мачизм и феминизм / [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <https://estatespain.com/blog/zhenschiny-v-ispanii>.
10. https://uza.uz/uz/posts/ayol-rahbar-qanday-bolmogi-zarur_276048